



XALQ DEPUTATLARI MIRZACHO‘L TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 5-avgust

VII-23-59-3-51-K/26

Mirzacho‘l tumani

Mirzacho‘l tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnoma asosida qattiq maishiy chiqindilarini olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori 8-bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilishi, bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan Xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilab qo‘yilgan.

Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflari yuzasidan Mirzacho‘l tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasining 2026-yil 8-aprildagi 15-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Mirzacho‘l tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26 dekabrda PQ-387 son “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida”qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mirzacho‘l tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha

to'lov tariflari yuzasidan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i A.Abdurashidovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Sanitar qoidalar va me'yorlariga asosan hududlar bo'yicha o'rnatilgan me'yorlardan iste'molchining faoliyat turidan, joylashuvidan va xizmatidan foydalanish usulidan kelib chiqib iste'molchi tomonidan 1 m³ QMCh (qattiq maishiy chiqindilar) hajmi uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning qattiq maishiy chiqindilarini markaziy chiqindi saqlash obyektiga olib borib joylashtirish xizmat haqqi summasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi (Sh.Dadayev), tuman Tibbiyot birlashmasi (S.Bobobekov), tuman Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo'limi boshlig'i (A.Hamraev), O'zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo'limi (S.Boymatov)lar fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

5. Ushbu Qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Mirzacho'l tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**AXMEDOV
JAMOL
ABDUJALILOVICH**

Xalq deputatlari Mirzacho'l tumani
Kengashining
2026-yil 5-avgustdagi
VII-23-59-3-51-K/26 -son qaroriga
1-ilova

**Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy
ko'chalari bo'yidagi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar
bilan tuzilgan shartnoma asosida qattiq maishiy chiqindilarini olib
chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko'rsatish bo'yicha
to'lov tariflari**

Xizmat Ko'rsatiladigan shaxslar	Tip, marka, artikul yoki madel raqami	O'lchov Birliqi	Tarif miqdori (so'm)
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning qattiq maishiy chiqindilarni markaziy chiqindi saqlash obyektiga olib borib joylashtirish (QQS bilan)	QMCH	1 m3	67200